



## CONDUCTING IN ARCHIVAL DOCUMENTS OF THE CHANGES CARRIED OUT IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM (IN THE CASE OF KOKAND)

**Muhsinjan Kodirov**

*Doctoral student*

*Fergana State University Fergana*

*Fergana, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Education System, Law on Education, Cabinet of Ministers, Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, gymnasium, lyceum, law, law, decisions, textbooks.

**Received:** 30.05.25

**Accepted:** 01.06.25

**Published:** 03.06.25

**Abstract:** In this article, the reforms and changes in the field of general secondary education in our country are analyzed in the case of the city of Lot. All information and legal grounds provided in the article are explained using formal archival documents. The results of reforms in the field are also taken into account.

## UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN O'ZGARISHLARNING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI (QO'QON SHAHRI MISOLIDA)

**Muhsinjon Qodirov**

*Tayanch doktorant*

*Farg'onan davlat universiteti Farg'ona*

*Farg'ona, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, gimnaziya, litsey, maktab, qonun, qaror, o'quv darsliklari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda umumiy o'rta ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar va o'zgarishlar Qo'qo shahri misolida tahlil qilib berilgan. Maqolada keltirilgan barcha ma'lumotlar va huquqiy asoslar rasmiy arxiv hujjatlari yordamida izohlab berilgan. Shuningdek, sohada olib borilgan islohotlarning natijalari ham alohida e'tiborga olingan.

## ПРОВЕДЕНИЕ В АРХИВНЫХ ДОКУМЕНТАХ ИЗМЕНЕНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В ОБЩЕЙ СИСТЕМЕ СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ (В СЛУЧАЕ С КОКАНДОМ)

**Мухсинжан Кодиров**

*Докторант*

*Ферганского государственного университета*

*Фергана, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** система образования, закон об образовании, изменения в области общего среднего образования, Кабинет министров, Кабинет министров Узбекистан, гимназию, лицем, право, право, решения, учебники.

**Аннотация:** В этой статье реформы и изменения в области общего среднего образования в нашей стране проанализированы в случае города Лота. Вся информация и юридические основания, представленные в статье, объясняются с использованием формальных архивных документов. Результаты реформ в этой области также учитываются.

### **Kirish**

Tariximizga e'tibor bilan qaraydigan bo'lsak, asrlar davomida ta'lif tizimi biz uchun taraqqiyot va madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizda tashkil topgan barcha davlatlarda ham ta'lif tizimiga alohida e'tibor bilan qaralib, ta'lif beruvchilar va oluvchilar uchun sharoitlar yaratishga harakat qilingan. Jumaladan, O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishganidan so'ng ham rivojlanishning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lif sohasi e'tirof etilganligini ko'rish mumkin. Misol uchun, dastlabki davrda sohani Rivojlantirish maqsadida ta'lif oluvchilarning haq-huquqlari avvalo "Ta'lif to'g'risida"gi qonunda belgilab berilgan. Zamon talablariga mos ravishda "Ta'lif to'g'risida"gi yangilanib borgan. Misol uchun, dastlabki qonun 1992-yil 2-iyulda [1], keyingisi 1997-yil 29-avgustda [2] va eng so'ngisi esa 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan [3].

### **Asosiy Qism**

Qo'qon shahrida ham mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab, umumiy o'rta ta'lif sohasida o'zgarishlar amalga oshirila boshlangan. Misol tariqasida quyidagi o'zgarishlarni keltirish mumkin. Shahar hududida iqtidorli, qobilyatli bolalarni aniqlash va ularni yurtimiz taraqqiyoti uchun yetuk, malakali kadr qilib tayyorlash maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligining 1991-yil 13-martdagи 73-sonli "Respublikada gimnaziyalar ochish haqida"gi buyrug'i va Qo'qon shahar hokimining 1992-yil 17-iyundagi 132-sonli qaroriga muvofiq 27-o'rta maktab bazasida 1992/1993-o'quv yildan boshlab gimnaziya sinflari ochilgan. Shahar hokimi qaroriga muvofiq, tegishli buyruqlar asosida gimnaziyanı moddiy mablag' bilan ta'minlash shahar moliya bo'limi boshlig'i – S.Mamajonovga, Gimnaziya Nizomida

ko‘rsatilgan talablar bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilarni tanlab olish va ularni o‘qish sharoitini yaratish esa Xalq ta’limi bo‘limi mudiri E.Ergashevga topshirilgan [4; 232].

Qo‘qon shahrida 1994-yilga kelganda ta’lim tizimi bo‘yicha quyidagi o‘zgarishlar amalga oshirilgan edi. Ya’ni bu davrgacha 1 va 23-maktablarda ingliz tili, 2-maktabda jismoniy tarbiya, 3-maktabda eski o‘zbek yozuvi, 7-maktabda rasm-chizmachilik, 15-maktabda adabiyot, 20 va 21-rus tilida o‘qitiladigan maktablarda o‘zbek tili, 28-maktabda pedagogika sinflari, 27-maktab qoshida gimnaziya, 32-maktabda litsey, 22 va 27-bog‘chalarda gimnaziya sinflari ochilgan [5; 14]. 1994-yilda shahardagi mavjud 38 ta maktabdan 6 tasi 9 yillik tayanch maktab, 32 tasi esa o‘rta maktab sifatida faoliyat ko‘rsatgan [5; 15].

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, 1995/1996-o‘quv yilida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar shahar hokimining 1995-yil 2-sentabrda chiqarilgan 117/a-F sonli farmoyishida belgilab berilgan. Farmoyishga binoan, 1995-yil 2-sentarbda boshlab Qo‘qon shahar Xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 4, 15, 20, 22, 23, 35 maktablarda hamda “Qo‘qon” ishlab chiqarish birlashmasi qoshidagi 24-“Bo‘ston” bolalar kobilatida 1 tadan gimnaziya sinflari, 14-maktabda 4 ta ingliz tilini chuqur o‘rgatiladigan gimnaziya sinflar ochilishi belgilab qo‘yilgan [6; 49].

1995-yil 2-sentabrda chiqarilgan 117/b-F sonli farmoyishida esa 1995-yil 2-sentarbda boshlab, shahar xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 35-umumiyo‘rta maktab bazasida “Ekologiya va iqtisodiy bilim asoslari” litseyi ochilgan [6; 50]. Shu tariqa shaharda mavjud maktablarni qayta ixtisoslashtirilgan va zamon talablariga muvofiq ta’lim berish ishlari amalga oshirilgan.

Ta’lim sohasi islohotlari nafaqat yangi sohalar bo‘yicha sinflar va gimnaziyalar tashkil etish, balki talim dargohlarini ta’mirlash bilan ham amalga oshirilgan. 1995-yil davomida shaharda jami xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 40 ta maktab, 35 ta bolalar bog‘chasida joriy ta’mirlash ishlari olib borilgan hamda ular yangi o‘quv yiliga tayyor holatga keltirilgan [7; 14].

1997-yil yurtimizda Inson manfaatlari yili deb e’lon qilgan bo‘lib, bu yildan boshlab davlatimizdagi barcha 1-sinf o‘quvchilarida bepul o‘quv qurollari sovg‘a qilingan. Qo‘qon shahrida 1997-yilda umumiyo‘sobda 4000 dan ziyod birinchi sinf o‘quvchilari maktabga chiqishgan [8; 11]. Bu vaqtda shahar 40 ta maktab, 70 dan ziyod bolalar bog‘chasi, 7 ta maktabdan tashqari muassasalar mavjud bo‘lgan. Shu davrda shahar maktablarida turli yo‘nalishdagi iqtidorli sinflar faoliyat ko‘rsatgan. Masalan, 27-maktab gimnaziyada kimyo, biologiya, fizika, matematika, 32-maktab litseyda fizika-matematika, 11, 12, 15, 28, 29-maktablarda Nafosat, 2, 3, 21, 27, 33, 36, 37-maktablarda futbol sinflari, 23-maktabda bank sinfi, 28-maktabda huquqshunoslik sinflari ochilib, o‘qitish ishlari olib borilgan [8; 12].

Ta’lim sohasining rivojlanishi nafaqat ta’lim dargohlari, unda ta’lim oluvchilar uchunsharoit yaratish balki, sohada faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilar uchun ham sharoit yaratib

berishga ham bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 1997-yil 20-avgust kuni 409-sonli “O‘qituvchilar va o‘quvchilar turmushi moddiy sharoitlarini yaxshilashga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, Farg‘ona viloyati hokimining 1997-yil 23-sentabrdagi 237-sonli va Qo‘qon shahar hokimining 1997-yil 13-oktabrdagi 235-sonli qarorlarida 1997-yil 1-sentabrdan boshlab umumta’lim maktablari va barcha tur hamda nomidagi maktab internatlarning o‘qituvchilari, o‘rta-maxsus va hunar texnika o‘quv yurtlari muallimlari uchun eng kam oylik ish haqiga foizlarda tabaqlashtirilgan qo‘srimcha miqdorlari belgilab qo‘yilgan [9; 83].

Yuqoridagi qarorlarga ko‘ra qo‘srimcha ustamalar quyidagicha miqdorda belgilangan. Daftarlarni tekshirganlik uchun qo‘srimcha haq midorlari quyidagi hisoblangan: 1) 1-4 sinf o‘qituvchilariga 30 foiz miqdorida; 2) 5-11 sinf o‘qituvchilar uchun esa a) tillar va adabiyot bo‘yicha 40 foiz; b) matematika bo‘yicha 30 foiz; d) stenografiya bo‘yicha 20 foiz; 3) sinf rahbarlik uchun – 50 foiz; 4) o‘quv xonalari va labaratoriyalarni boshqarganlik uchun 25 foiz [9; 84].

Shuningdek, o‘quvchilar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, ularning ongi va dunyoqarashini kengaytirish maqsadida vilooyat hokimi tomonidan 500 ming nusxada, shahar hokimi tomonidan ham 500 ming nusxada kitoblar maktablар va boshqa ta’lim dargohlariga sovg‘a tariqasida tarqatilgan [10; 39].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 5-yanvardagi 4-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyoti bilan ta’minalashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi va viloyat hokimining 1998-yil 29-iyundagi 140-sonli qarorilari asosida shahar hokimining 1998-yil 3-iyuldagи 151-sonli qarori qabul qilingan [11; 14]. Yuqorida keltirilgan qarorlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq, uzluksiz ta’lim tizimini zamonaviy talablarga javob beradigan o‘quv-uslubiy adabiyotlar majmui bilan ta’minalashni takomillashtirish hamda sohaga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish maqsadida 1998/1999-o‘quv yilidan boshlab o‘rta ta’lim maktablari, kasb-hunar maktablari o‘quvchilarini darsliklar bilan ta’minalashning pulli shakli joriy etilishi, darsliklar bilan ta’minalash pulli shaklga o‘tgandan keyin ham barcha maktablarning 1-sinf o‘quvchilari, mehribonlik uylari, aqlan va jismonan zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablар va maktab-internat o‘quvchilarini darsliklar bilan to‘liqligicha va bepul ta’minalishda davom etishi belgilab qo‘yilgan [11; 15].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sesssiyasida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturiga ko‘ra yangi turdagi ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, iqtidorli va qobiliyatli bolalarni tanlash, ularni o‘qitish, yoshlar o‘rtasida huquqiy bilimlarni chuqurlashtirish, ularning mazkur sohaga qiziqishlarini ta’minalash, keng omma

orasida huquqiy bilimlarni targ‘ib qilish maqsadida Qo‘qon shahar hokimining 1998-yil 31-yanvarda 11-F sonli farmoyishi chiqarilgan. Unga ko‘ra, Tesha Zohidov nomli 28-o‘rtta ta’lim maktabi qoshida tashkil etilgan huquqshunoslik sinflariga “Huquqshunoslik litseyi” maqomi berilgan. Shuningdek, 27-o‘rtta maktab qoshida tashkil etilgan gimnaziya sinflariga esa “Gimnaziya maktabi” maqomi berilgan [12; 32].

Shahar hududida iqtidorli bolalarni tanlab olish, ularni qo‘llab-quvvatlash hamda yoshlari o‘rtasida sportni yanada kengroq targ‘ib qilish maqsadida Qo‘qon shahri hokimining 1999-yil 11-avgustdagi 232-sonli qarori bilan “Olimpiada zahiralari” umumiy o‘rtta ta’lim maktabi tashkil qilingan. Xalq ta’limi bo‘limi mudirasi M.Rahimovaga maxsus maktabni bino, zamonaviy o‘quv qurollari, o‘qitishning texnik vositalari, yuqori toifali o‘qituvchilar, pedagogik xodimlar bilan ta’minlash vazifalari yuklatilgan [13; 35].

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va ta’lim olish uchun yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida 1999-yilda Qo‘qon shahrida maktabgacha ta’lim muassasalari va maktablarda 2820 dan ortiq tarbiyachi, pedagog xodimlar faoliyat ko‘rsatgan. Shu bilan birgalikda, bu davrda 7750 nafar tarbiyalanuvchini qamrab olgan 52 ta maktabgacha ta’lim muassasasi va 40535 nafar o‘quvchilar saboq olayotgan 43 maktab ishlab turgan [14; 9].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 9-iyul kuni Qashqadaryo viloyatiga tashrifi vaqtida ta’lim tizimi bilan tanishib bergen maslahatlari va tavsiyalariga asoslanib, Qo‘qon shahar hokimining 2001-yil 9-avgustdagi “Umumiy o‘rtta ta’lim maktablari o‘quv moddiy bazasini takomillashtirish to‘grisida”gi 345-sonli qarori chiqarilgan. Unga ko‘ra, maktablar o‘quv-moddiy bazasini rivojlantirishning 2001-2005-yillarga mo‘ljallangan manzilli dasturi qabul qilingan. Ushbu qarorda shahar hokimi o‘rinbosari A.Valiyevga shahardagi umumiy o‘rtta ta’lim maktablari o‘quv-moddiy bazasini takomillashtirish to‘g‘risidagi harakat dasturini mablag‘ bilan ta’minlash, belgilangan muddatda manzilli dasturga kiritish masalalarini o‘z vaqtida hal qilish vazifasi topshirilgan. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari R.Boltayevga xaroba hoaltidagi va qurilishi boshlanib tugallanmasdan qolib ketgan maktab binolari, maktablarda sport zal, oshxona, bufet, telefon aloqasi va toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni harakat dasturida ko‘zda tutilgan muddatlarda topshirish vazifasi yuklatilgan [15; 35].

### Xulosa

Yuqoridagi ma’lumotlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, Qo‘qon shahrida istiqlolning dastlabki yillarda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar ta’lim sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan qatlamlarning ish faoliyatiga ijobiy ta’sir qilgan. Bunda, o‘quvchilar uchun qiziqishlariga mos holda maxsus yo‘nalishlarga ixtisoslashgan ta’lim yo‘nalishlarga ega maktab, gimnaziya va litseylar tashkil qilingan. Ta’lim dargohlarining o‘quv binolari, moddiy-texnik bazalari va kitoblar

bilan ta'minlash darajalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ta'lim sohasida ish faoliyatini olib boruvchi pedagoglar uchun ham qulay sharoit yaratish maqsadida ularning ish haqlariga qo'shimcha ustama haqlari joriy qilingan. Ta'lim sohasini rivojlantirish uchun manzilli dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilingan.

**Foydalanimanqilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Kengashining Qarori, 02.07.1992 yildagi 637-XII-son.  
<https://lex.uz/ru/docs/-56584?ONDATE=23.07.1992>
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.08.1997 yildagi 464-I-son.  
<https://lex.uz/ru/docs/-16188?ONDATE=05.01.2018%2002>
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.  
<https://lex.uz/docs/-5013007>
4. Farg'onan viloyati davlat arxivni, 1230-fond, 1-ro'yhat, 9-yig'ma jild.
5. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 42-yig'ma jild.
6. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 87-yig'ma jild.
7. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 107-yig'ma jild.
8. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 109-yig'ma jild.
9. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 120-yig'ma jild.
10. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 125-yig'ma jild.
11. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 135-yig'ma jild.
12. FVDA, 1230-fond, 1-ro'yhat, 141-yig'ma jild.
13. FVDA, 1230-fond, 2-ro'yhat, 10-yig'ma jild.
14. FVDA, 1230-fond, 2-ro'yhat, 18-yig'ma jild.
15. FVDA, 1230-fond, 2-ro'yhat, 46-yig'ma jild.